



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

TARIXIY ASARLARDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK- SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Xamdamov Oybek Abdulxayevich

Namangan davlat universiteti tayanch doktranti

IMPULS tibbiyot instituti o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179642>

Annotatsiya: Maqolada frazeologik birliklar haqida umumiy ma'lumotlar va ularning taraixiy asarlardagi ahamiyati haqidagi taniqli olimlarning fikrlaridan na'munalar keltirilib, misol tariqasida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida uchraydigan ayrim frazeologizmlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Frazeologik birliklar, ta'sirchanlik, jonlilik, ekspressivlik, freymalar, barqaror so'z birikmalari, leksik-semantik xususiyatlar, barqarorlik.

Kirish. Frazeologik birliklar ma'lum bir xalqning madaniy til boyligidan guvohlik beradi. Ular etnos dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga yordam beruvchi til birliklaridir. Frazeologizmlar har bir madaniyatning ajralmas qismidir. Ular avloddan-avlodga og'zaki ravishda o'tib kelib, xalqning tarixini, uning qadriyatlari, insoniy fazilatlar va kamchiliklarga bo'lgan munosabatini, shuningdek, dunyoqarashining o'ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Frazeologik birliklar o'zining obrazlilik, hissiy ta'sir kuchi va baholovchi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularning aksariyati stilistik jihatdan ifodali bo'lib, matn mazmunini jonlantirish, muhim jihatlarni ajratib ko'rsatish va axborotni ixcham yetkazishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Asosiy qism. Frazeologik birliklarning ko'pchiligi zamonaviy tillarga badiiy adabiyotlar orqali kirib kelgan. Ular turli davr va janrlardagi asarlardan o'z ildizlarini olib, milliy va madaniy xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Frazeologizmlar tilning doimiy tarkibiy qismi bo'lib, faol qo'llaniladi, biroq barcha ona tilida so'zlashuvchilar ularning kelib chiqish manbalarini bilmaydi yoki tushunmaydi. Shunga qaramay, ularning hozirgi nutqda keng ishlatilishi frazeologizmlarning til egalarining lingvistik ongida mustahkam o'rin egallaganidan dalolat beradi.

Tilshunos olim A.V. Kuninning ta'kidlashicha, frazeologik birliklar tilning leksik tizimidagi bo'shliqlarni to'ldiradi. Ular inson uchun yangi bo'lgan voqelikni to'liq ifodalay olmaydi, balki ko'pincha ob'ektlar, xususiyatlar, jarayonlar va holatlar uchun yagona belgi sifatida xizmat qiladi.[1.13] Ayniqsa, kishining ruhiy holatni ifodalovchi frazeologizmlar tilning eng yorqin va jonli qismi bo'lib, ular nutqqa ta'sirchanlik va jonlilik baxsh etadi. Ular so'zlovchining his-tuyg'ularini va



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

emosiyalarini yetkazishda samarali vosita sifatida og'zaki va yozma nutqda keng qo'llaniladi.

Frazeologik birliklar voqelikni majoziy idrok etish asosida shakllanadi. Ular muayyan til hamjamiyatining kundalik tajribasi, madaniyati va tarixiy merosini o'zida aks ettiradi. Ko'plab frazeologizmlar ertaklar, mifologiya, diniy matnlar va adabiy asarlardan kelib chiqqan bo'lib, ular doimiy ravishda ekspressivlik xususiyatiga ega.

Ekspressivlik frazeologik birliklarning nutqni yanada jonli, ta'sirchan va samarali qiluvchi xususiyatidir. Bunday birliklar semantik jihatdan o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, ma'lum tushunchalarni aniq va obrazli yetkazish, shuningdek, voqelikning muhim xususiyatlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Frazeologik birliklar xalqning madaniyati, dunyoqarashi, urf-odatlarini, qadimiy an'analari, obrazli tafakkuri va o'ziga xos xulq-atvori bilan bog'liq bo'lgani uchun tilning eng muhim madaniy ma'lumotlarni ifodalovchi unsurlaridan biri hisoblanadi. Ular xalq donoligini, etnosning qadriyatlar tizimini va nafaqat moddiy dunyo tartibini, balki insonning ichki olamiga oid faol va passiv bilimlarni ham aforistik shaklda aks ettiradi.

A.V. Jukov frazeologik ma'noni aniqlash uchun idiom semantikasi tahlilini taklif etadi, bunda frazeologizmlar tarkibiy qismlarining asosiy so'z va so'z birikmalari bilan o'zaro bog'liqligi o'rganiladi.[2.160] V.N. Teliya esa frazeologizmlar semantikasini kognitiv yondashuv doirasida tahlil qilib, til belgisining ma'nosini bevosita dunyo bilan bog'lash o'rniga, bilimlarning aniq tuzilmalari – freymlar orqali tavsiflaydi.[3]

Freym kognitiv tuzilishga ega bo'lib, bir-biri bilan bog'langan elementlardan tashkil topgan va odatiy, mavzuiy jihatdan uyg'unlashtirilgan vaziyatlar haqidagi bilimlarni aks ettirishga xizmat qiladi. Ushbu tushuncha ikkita asosiy yondashuvni o'z ichiga oladi: biri – freymni bilimlarning kognitiv tizimi sifatida tushunish, ikkinchisi esa – bilimlarni namoyish etish strukturasi sifatida qarash.

Til yordamida ongimizda shakllangan etnospesifik bilimlar tizimli ravishda tartiblanadi va frazeologik birliklar orqali ifodalanadi. N.N. Boldirev freymni "stereotipik vaziyatlar haqidagi bilimlar jamlanmasi bo'lgan keng qamrovli va ko'p komponentli konsept" sifatida talqin qiladi.[4.16]

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir xalq tiliga xos barqaror so'z birikmalari frazeologiya deb ataladi. Frazeologiyani o'ziga xos xususiyati shundaki, uning ma'nosini so'zma-so'z, aynan tushunish mumkin emas, balki uning "zamidagi yotgan" ma'nosini anglash kerak bo'ladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

kunlar” asaridagi “bu ishkalni ko‘rgan Qalandarning tarbuzi qo‘ltig‘idan tushib: “Besh oqtani qaytarish uvol-ku?!”[5,143]. Ushbu misoldagi “tarbuzi qo‘ltig‘dan tushib” so‘zlarini aynan tushunilsa hech qanday ma‘no chiqmaydi yoki butunlay boshqa ma‘no kelib chiqishi mumkin-ki matnda anglashilayotgan voqeaga bog‘liq bo‘lmagan ma‘no anglatishi mumkin. Aslida o‘zbek tilidagi “tarvuzi qo‘ltigidan tushdi” iborasi – “umidi puchga chiqmoq, xafsalasi pir bo‘lmoq” kabi ma‘nolarni anglatadi.[6.679]

Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanida bunday frazeologik birliklardan juda ko‘p o‘rinlarda ustalik bilan foydalanganini quyidagi misollarda ko‘rishimiz mumkin:

“Ammo sening jahlingni chiqarib kulishim bo‘lsa, faqat “o‘lganimdan kulaman, yuzimni yerga suraman” qabilidan bo‘lib, bunga sen tushunmas eding. Nihoyat sen aytkandek jonim hiqildog‘img‘a yetdi-da, o‘g‘lingni bu gal Marg‘ilonga borma, deb yo‘ldan qaytarib qolg‘uchi ham men – o‘zim bo‘ldim... .”[5.305]

Ushbu parchada Yusufbek hojining O‘zbek oyimga ichidagi dardini, bo‘layotgan voqea-xodisalardan u ham hursand emasligini tushuntirishini muallif juda chiroyli qilib ifodalab bergan. Ya‘ni, “o‘lganimdan kulaman” iborasi o‘zbek tiliga – boshqa ilojim yo‘qligidan kulaman,[6.151] degan ma‘noni bildiradi. Ikkinchi ibora “jonim hiqildog‘img‘a keldi” deyish bilan o‘ta qiynalib ketish[6.103] ma‘nosini anglatgan. Bulardan tashqari, “Kumushning **choyini oqlab** ber”, “ularning soyalarida men qizingiz **o‘ynab-kulib** yuribman”, “**o‘g‘ir oyoq** bo‘lmasam edi”, “kelasi oyga **ko‘zim yorir** emish”, “**oramiz** juda buzilgan”, “**oramizda tikan** bo‘lmoqchi” kabi ko‘plab iboralar qo‘llanilgan. “Choyni oqlamoq” – choyga sut qo‘shib bermoq,[6.176] “o‘ynab kulib yurmoq” – xursand bo‘lib yurmoq, “o‘g‘ir oyoq” – ayollarning xomiladorligi, “ko‘zi yorimoq” – tug‘moq, farzandni dunyoga keltirmoq, “orasi” – ushbu matnda ikki kishi o‘rtasidagi munosabat, “oramizda tikan bo‘lmoq” – ikki kishi o‘rtasida keraksiz bo‘lib turgan odam, yoki g‘ov ma‘nolarini ifodalagan. Hozirgi kunda so‘zlashuvda qo‘llanilmayotgan, tarixiy matnlarga xos bo‘lgan iboralar ham mavjud bo‘lib, ushbu asarda ulardan unumli foydalanilgan. Quyida bir misolga e‘tibor qaratamiz:

“Bu xabarni Xasanalidan eshitkan kunlari ul bu ishka chidab turolmadi: “Endi menga mundog‘ o‘g‘ul kerak emas... **Oq sutimni oqqa, ko‘k sutimni ko‘kka sog‘dim** Endi Toshkandga kelmasinul o‘zboshimcha betiyuq!” – deb baqirib-chaqirib, yig‘lab-sixtab, **dard-u hasratini boshig‘a kiyib oldi.**”[5.131]

Asardan olingan parchada O‘zbek oyimning o‘g‘li Otabekdan, uning Marg‘ilondan o‘zicha uylanib olganidan xabardor bo‘lgandan keyin noroziligini “**oq**



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

sutimni oqqa, ko'k sutimni ko'kka sog'dim" iborasi bilan ifodalagan. To'g'ri, oddiygina qilib "xafa bo'ldim", "qilgan ishidan noroziman" yoki "mehnatimga rozi emasman" ko'rinishida o'z norozichiligini ifodalashi ham mumkin edi. Lekin, muallif O'zbek oyimning noroziligini ifodalash bilan bir qatorda judyam jahli chiqqanligini ham bir ibora bilan ta'sirli qilib aks ettirish uchun yuqoridagi iboradan foydalangan.

Frazeologik birliklar tilning leksik boyligini tashkil etuvchi barqaror birikmalar ekan va ular xalqning ma'naviy dunyosi, urf-odatlarini, madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda bo'ladi. Frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini chuqur o'rganish orqali tilning badiiy va uslubiy imkoniyatlarini yanada kengroq tushunish mumkin. Shu o'rinda izlanishlarimiz natijasida shunga amin bo'ldik-ki, frazeologik birliklarning bir qator umumiy xususiyatlari mavjud ekan. Bular quyidagilardir:

1. **Barqarorlik** - frazeologik birliklar tarkibiy jihatdan barqaror bo'lib, ularning so'z tarkibi va grammatik shakli o'zgarishsiz saqlanadi. Masalan, "**tilida zahri bor**" iborasi har doim bir xil shaklda qo'llaniladi va uning tarkibiy qismlarini almashtirish mumkin emas.

2. **Ma'no yaxlitligi** - frazeologik birliklar tarkibidagi so'zlar alohida ma'noga ega bo'lmasdan, umumiy yaxlit ma'noni ifodalaydi. Masalan, "**ko'zini ochdi**" iborasi "haqiqatni anglash" ma'nosini bildiradi, lekin bu yerda "ko'z" va "ochmoq" so'zlari o'z leksik ma'nosini yo'qotadi.

3. **Ekspressivlik va obrazlilik** - frazeologizmlar odatda jonli va obrazli ifodalar bo'lib, ular nutqni badiylashtiradi. Masalan, "**yuragi tilka-tilka bo'ldi**" iborasi insonning ichki azob-uqubatlarini kuchli obraz bilan ifodalaydi.

4. **Uslubiy xususiyatlar** - frazeologik birliklar ko'pincha badiiy, publitsistik va og'zaki nutqda qo'llanadi. Ularning uslubiy rang-barangligi nutqni boyitadi va unga o'ziga xos ohang beradi.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida frazeologizmlar orqali o'z davrining madaniy, ijtimoiy va tarixiy muhiti yoritib berilgan. Asar nafaqat voqealar rivoji va obrazlarning hayotiyliigi bilan, balki tilda ishlatilgan frazeologizmlar orqali milliy ruh va madaniyatni aks ettirishi bilan ham alohida ahamiyatga ega. "O'tkan kunlar"da frazeologik birikmalar quyidagi maqsadlarda ishlatilganligini guvohi bo'lamiz:

1. Obrazlarning psixologik holatini ifodalash;
2. Milliy madaniyatni ifodalash;
3. Tilning badiiy ta'sirchanligini oshirish.



XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Bulardan kelib chiqib frazeologizmlar Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida tilning o‘ziga xosligini, obrazlarning tabiiyligini va voqealar rivojini boyitishda muhim o‘rin tutadi. Ular o‘quvchiga xalqona ruhni yetkazib, qahramonlar va voqealarga yaqinroq his qilish imkonini beradi. Bu iboralar o‘zbek milliy tilining badiiy imkoniyatlarini kengaytirgan va xalq madaniyati boyligini asar sahifalarida abadiylashtirgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asaridagi frazeologizmlar milliylik va tarixiylikni yoritishda muhim ahamiyatga ega. Ular orqali o‘zbek xalqining ma’naviy boyligi va tarixiy tajribasi aks ettirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kunin A.V. Ikki tomonlama aktualizatsiya frazeologik stilistika tushunchasi sifatida / A.V. Kunin // Maktabda chet tillari. - 1974. - 6-son. - B.13-17.
2. Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. – М.: Просвещение, 1978. – 160 с.
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki/frame>
4. Болдырев Н. Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики// Вопросы когнитивной лингвистики. – 2004. – стр. 16.
5. Qodiriy A., O‘tkan kunlar /roman/ “Adabiy barhayot asarlar” turkumi, Toshkent,: “Navro‘z”, 2019.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, -Toshkent, 2022, t. pdf.